

# ATSETELEN ASOSIDA SINTEZ QILINGAN BIRIKMALARNI FUNGITSIDLIK FAOLLIGI

Talaba.Rahimova.SH.E.,O'qituvchi.Esanmurodava.N

“TIQXMMI”Milliy Tadqiqot Universiteti

Respublikamizda g'allachilikni rivojlantirish butun hosildorlikni oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi.O'zbekiston bug'doydan yuqori hosil olish bo'yicha yetakchi o'rinlardan joy olgan.Aholini bug'doyga bo'gan ehtiyojini to'la qondirish uchun g'alla ekinlarida uchraydigan zararli zamburug'lar har doim to'siq bo'lib kelgan.G'alla ekinlariga 10 dan ortiq turdagi kasalliklar zarar yetkazadi. Ular, qo'ng'ir rang, sariq zang, un shudring, sariq dog'lanish, septorioz, boshqoq fuzariozi, chang qorakuya, qattiq qorakuya, ildiz chiqarish, qor osti mog'orlanish kasalliklaridir. Zararli organizmlardan o'z vaqtida ximoya qilish, yuqori xosil olishni ta'minlaydi.

Olib borilgan tadqiqot “Andijon” navli kuzgi bug'doyda uchraydigan sariq zang kasalligini keltirib chiqaradigan ( *Puccinia striiformis* West ) zamburug'iga qarshi kurashish uchun amalga oshirildi.

Kasallik don to'lish davrida tushsa 5-10 foizdan 30-35 foizgacha xosilni nobud qiladi.Bug'doy bayroq barg chiqarish davrida (boshqoq chiqarish arafasi) sariq zang bilan 50-60 % zararlansa, don xosili 45-50 % yo'qotiladi. Sariq zang kasalini keltirib chiqaradigan zamburug' sporalari havo xarorati 0°C bo'lishi bilan o'simlik tanasida rivojlana boshlaydi, uning avj olib ko'payishi uchun eng qulay xarorat 12-23 °C daraja hisoblanadi. Kasallik belgilari avval boshqoqli begona o'tlar va boshqoqli ekinlar barglarida uzun, qator–qator joylashgan, aniq ko'rinishdagi sariq yostiqliklar hosil qilib paydo bo'ladi. Asta sekin zang kasalligi butun barg yuzasini qoplaydi. Bargdagi modda almashinuvi buzilib, ozuqa hosil bo'lishi keskin kamayib, boshqodagi doni to'lmay qolishiga olib keladi. Sinovni mart, aprel oylarida sintez qilingan efirlarning fungitsidlik faolligini aniqlash uchun dastlabki tajribalar o'tkaziladi.

Kasalliklarni aniqlash uchun kasallikning o'simlikdagi tashqi belgilari, spora a'zolarini namunasini mikroskopda tekshirish ham ularning belgilarini qayd qilish ishlari asosida bajariladi.

Sintez qilingan quyidagi kimyoviy preparatlar: 2,5 difenil – 5- vineloksi-geksin-3-ol- 2 va 2,5 difenil- 2,5- diveniloksi-geksi-3 ni *Puccinia striiformis* West zamburug'iga qarshi fungitsidlik xossasi o'rganiladi.

Ob-havo sharoitiga ko'ra fungitsid 1 yoki 2 marta qo'llaniladi. Fungitsidlarni ikki marta qo'llash kasallikning rivojlanish darajasini maksimal darajada kamaytiradi.

2,5-difenil- 5- vineloksi-geksin-3-ol- 2 fungitsidlik xossalarini Puccinia striiformis West zararkunandalariga ta'siri 0,1 % li eritmasi ishlatilganda yuqori faollikni namoyon qildi, 90.2 %, 0.2 % li eritmasida faollik ko'p farq qilmaydi yani 90.8 % ni tashkil etadi 2,5 difenil – 5- vineloksi-geksin-3 esa 94.5 % aktivlikni namoyon qiladi. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida zamburug'larga qarshi “ TITUL Duo” preparatidan foydalaniladi. Sintez qilingan preparatlarni fungitsidlik xossasi kontrol sifatida olingan “ TITUL Duo” ga yaqin ekanligi tajriba natijalaridan ma'lum bo'ldi.

### Sintez qilingan birikmalarning fungitsidlik faolligi

	Preparatlar nomi	Sarf me'yori g/ga yoki ml/ga	Konsentratsiya,%	( Puccinia striiformis West ) zamburug'i
1	2,5 difenil – 5- vineloksi-geksin-3-ol- 2	100	0.1	90.2
		200	0.2	90.8
		50	0.05	88.2
		25	0.025	86.1
2	2,5 difenil – 5- vineloksi-geksin-3	100	0.1	94.5
		200	0.2	95.1
		50	0.05	91.2
		25	0.025	88.3
3	“ TITUL Duo”	100	0.1	90.0
		200	0.2	98.2

Xulosa sifatida aytish mumkinki, sintez qilingan birikmalar boshqoli o'simliklar kasalligi –sariq zang bilan kurashish uchun fungitsid xossasiga ega ekanligi aniqlandi. Sinov natijalari asosida o'rganilgan preparatlardan 2.5-difenil -2.5 difeniloksi-geksin-3 nisbatan effektiv fungitsid ekanligi ko'rsatildi.

## Adabiyotlar

1. Койшыбаев М. Болизни пшеницы // Анкара, 2018, -С. 7-9.
2. Хасанов Б.А., Гулмуродов Р.А. Ғалла ва шоли экинларида уруғ дорилари, фунгицидлар ва фаол моддаларни синаш бўйича услубий қўлланма // Тошкент, 2013, 37 б.
3. Гольшин Н.М. Фунгициды в сельском хозяйстве // -М., Химия, 1970,- С. 46-75.
4. Yusupova L., Abdulkarimova S., Rajabov R., Khalimova O., Vinylation by 3,6-dimetyloctin-4-diol-3,6 acetylene // Кимё ва кимё технологияси журнали, 2020№ 2, - С. 48-51.
5. Юсупова Л., Нурманов С. Синтеза виниловых эфирова на основе диолов // Монография. Publisher: LAP LAMBERT Academic Publishing. ISBN: 978-620-4-72783-7 All rights reserved. Beau Bassin. -2021. - 129 с.